

JUMANAZAR KHUSHBAKOV

The Author of the book “Momentum English Speaking”

# Speak English In 30 DAYS

*Speak English Fast, Easily and Automatically*

For both Uzbek and Russian starters

## TASHAKKUR

Kitob yozar ekanman, kim uchun yozaman, kimga atab va kimlarning yordami bilan kitob yozaman, bu savollar birinchi o'rinda xayolimga keldi. Bu kitobni kimga atalganligi hamda, kimga rahmat aytish haqida o'ylab ko'rdim. O'zimga savol berdim, bu kitobimning yaralishiga kimlar yordam berdi? Va tushindimki, men o'ylagandan ko'ra ko'proq odam bu kitobga yordam beribdi.

Birinchi navbatda men otamga, Mamataliyev Baxodirga, hamda onamga, Nasiba Eshmatovaga, cheksiz minnatdorchiligimni bildiraman. Ularning menga o'rgatgan har bir o'g'itlari mana bugun hayotimga juda ahamiyatli ekanligini his qilib turibman. Ota-onamsiz bu kitob yaralmagan bo'lar edi. Ularning hissasini men beqiyos deb hisoblayman.

Ikkinchidan, men bilan birga bo'lib kelayotgan yaqin do'st-u birodarlarim, tanishlarim, hamda bir ikki marta ko'rishganimda, yaxshilik qilgan hamda unday qilolmagan bo'lsada, teskarisini qilishni yaxshi eplagan odamlarga yuragimdan chuqur dil izhorimni bayon etaman. Hech qaysi bir odam hech qachon uzoq vaqt davomida muallaq bir xil tarzda turmaydi. Inson yoki yaxshilanadi yoki yomonlashib ketaveradi. Men ham doim yaxshilanishga harakat qilganimda, yaxshi insonlarni ko'rib, ulardan o'rganib, yaxshi narsalarni o'zim qaytarib qilishga harakat qilsam, salbiy inson, munosabat, harakat yoki fe'l-atvorlar ko'rganimda ham, men bulardan o'ziga xos mendan kutilgan xulosalarimni chiqarib oldim. Va bu ikki turdagi insonlar mening mana shu kitobimni yozishimgacha bo'lgan "men"imni tayyorlab bergan odamlar hisoblanishadi.

Uchinchidan, men hali uchratmagan balki umuman uchratmaydigan insonlar ham bu kitobimni yaralishi uchun sababchilar desam umuman mubolag'a qilmagan bo'laman. Bu kitob hali meni ko'rmagan, balki ko'rmaydigan o'quvchilarimning hayotlarida ko'proq, tezroq, osonroq, g'alabaga erishishlari uchun yozildi. Agar bu singari o'quvchilarim bo'lmaganda men bu kitobimni umuman yozmagan bo'lardim. Menga ruxsat bersangiz, bu kitobni ortida turib mehnat qilgan yaqin shogirdim, Davron Kholbutayevga o'z rahmatimni izhor etsam, Davronning yordamisiz bu kitobimni tezroq chiqarishga shoshilmagan bo'lardim, hamda uning bergan yordami rus o'quvchilari uchun cheksiz bo'ldi.

Va nafaqat juda ko'plab boshqa shaxslarga rahmat aytishimiz mumkin, balki rahmatlar deb ataladigan kitob chiqarsak ham, birgina kitobning yaralishidagi ishtiroklari uchun kamlik qiladi. Bir so'z bilan aytganda, mening hamma zamondoshlarimga tashukkur aytaman.

Bu kitob ingliz tilida xuddi o'z ona tiliday gapirishni xohlaganlar uchun yozilgan. Agar siz bu yo'lni samarali emas deb o'ylasangiz, siz bemalol yillab vaqtingizni bekor ketkazishingiz mumkin! Lekin to'xtatishdan avval, ishonmasangiz ham bir kirishib ko'ring! Agar shunda ham ishonmasangiz, sizga bunga o'xshagan sizning muvaffaqiyatingiz haqida qayg'uradigan kitobdan ko'ra bir yaxshi maslahat kerakligini tushuning.

## Nega bu kitob?

Men juda ham xursandman, chunki siz bu kitobni o'qishga qaror qildingiz. Men sizga va'da beramanki, siz bu kitob bilan sarflagan vaqtingiz juda ham samarali hamda foydali bo'ladi.

Insoniyat tarixidagi eng yaxshi davrda yashayotganligimizdan quvonsak arziydi. Shu paytgacha maqsadlarimizga erishish uchun bunchalar ko'p va keng imkoniyatlar bo'lmagan! Biz hozir yigirma birinchi asrdamiz. Juda ko'p narsalar o'zgardi. O'zgargan narsalardan eng ahamiyatlilaridan biri biz jismoniy ishlash orqali yashash dunyosidan aqliy ishlash dunyosiga o'tdik. Hozirgi paytda mumkin emas degan so'z deyarli ishlatilmay qoldi. Nimaiki inson miyasida fikr yoki g'oya sifatida kelar ekan, bu narsalarning barchasi bizning hayotimizda paydo bo'lyapdi. Avvalgi davrlarda juda uzoq masofalarga salmoqli vaqtini sarflab borishgan hamda bir og'ir metal buyumdan yasalgan texnikaning ularni manzillariga yetkazib qo'yishiga ishonishmagan hamda bu texnika mavjud bo'lishini "mumkin emas" deb atashgan. Keyinchalik bu mumkinligi ko'rsatildi. Dunyoning narigi tomonida turgan bir kishi ikkinchi kishi bilan avvalgi ishlatiladigan mablag' va vaqtning faqat bir qisminigina ishlatib fikr almashish, suhbatlashish imkoniyatiga ega bo'ldilar. Ya'ni siz hozirgi paytda maqsadlaringizga **oson, tez va albatta, imkoni boricha mablag' tejaydigan arzon** usullarda erishishni xohlaysiz. Insoniyat qachon va nega "mumkin emas" degan nomni "mumkin" degan nomga o'zgartirganiga bir e'tibor beraylik: har safar biz kimdur bir narsani qilib ko'rsatgandagina biz "bu mumkin" deyabmiz. Samalyot kashf etildi; Oyga odam uchirildi; Internetda uzoq masofalardagilar bilan bir necha soniyalardagina aloqa qilsa bo'ladigan bo'ldi. Bularning hammasi birinchi marta kimdur qilib ko'rsatgandan keyin "mumkin" degan nom oldi. Demak biz nimadur yangi narsani faqatgina kimdur avval qilmaganligi uchun "mumkin emas" deb atashimiz, bu yangiliklarning kashf etilishini to'xtatmasligimiz kerakligini yaqqol aytib turibdi. Shunday bir paytda, yangilikni qabul qila oladiganlar bu imkoniyatlardan juda ham keng foydalanib, o'z hayotini yanada chiroyli hamda yanada ko'proq narsalarga erishishyabdi, aksincha uni qabul qilolmaydiganlar (bunday odamlarni uchratish juda qiyin, ammo bunday odamlar ham bor). Bu davrda bizning savolimiz endi "mumkinmi?" emas, balki "qanchalik tez erishish

mumkin?” degan savolga o’zgardi. Tasavvur qilaylik ikki ishbilarmon tadbirkorlar suhbat quryabdi:

-Bu hamkorligimizni shartnomasini tuzishga qachon qaror qila olasiz?

-Men buni Koreyadagi do’stim bilan gaplashib olishim kerak.

-Qanchalik tez vaqt ichida gaplasha olasiz?

Ko’rib turganingizdek, siz O’zbekistonda bo’lsangiz “Koreyadagi do’stingiz bilan gaplashish imkoniyati bormi” deb savol berilsa, allaqachon kulgili tuyuladigan davrga kirib kelib bo’lganmiz. Zamonaviy internet hamda texnologiya evaziga savol “qanchalik tez?” degan ko’rinish hamda ma’noga ega bo’ldi.

Endi men sizga bitta savol bersam:

Aniqki, hozirgi paytda, zamonaviylashish, ilg’orlashish, rivojlanish natijasida “mumkin emas” degan tushunchaning o’zi ishlatilmay ketyotgan bir paytda, shuncha narsaning amalga oshishiga “mumkin” deb qaralyotgan paytda, chet tillarini ham xuddi o’z ona tilingizni o’rgangandek o’rganish imkoniyati yo’qmi? Ya’ni biz ona tilimizni xuddi shunday o’ynab-kulib o’rgandik-ku xuddi shunday oddiygina qiyin grammatik qoidalarsiz hamda yillab vaqtimizni ketkazmasdan qisqaroq vaqt ichida o’rganish mumkinmi?

Sizni tabriklashim mumkin, chunki siz uchun javob allaqachon topilib bo’lingan. Va javob albatta mumkin bo’libgina qolmay balki bu avvalgi usullardan *oson, tez va albatta, imkoni boricha mablag’ tejaydigan arzonroqligi* bilan ajralib turadi. Sizning qo’lingizda turgan ushbu kitob ingliz tilini o’rganishni xuddi shu tez, oson, samarali o’rganishingiz va sizning g’alabangiz uchun yozildi.

## Kirish

Salom, bu kitobimni men, Jumanazar Khushbakov, sizga, aziz o'quvchim, ingliz tilini siz o'ylaganingizdan ko'ra tezroq samaraliroq, shu bilan bir qatorda osongina o'ynab kulib o'rganishingiz uchun yozdim. Bu kitobni so'rayotganingiz va olib o'qiyotganligingiz uchun sizga rahmat! Bu ajoyib o'quv dasturimizga xush kelibsiz! Tabriklayman! Siz qadam tashladingiz, shunchaki birinchi qadamni tashlash orqali, siz o'zingiz uchun buyuk va yuksak kelajak xohlashingizni menga bildirdingiz. Siz o'qiyotgan mana shu kitob va bu kitobning davomi hisoblangan bir necha kitoblarim ichida men sizning ingliz tilini siz o'ylaganingizdan ko'ra arzonroq, tezroq, osonroq, samaraliroq o'rganishingizni aniq belgilab beradigan isbotlangan, sinalgan o'quv usulini joylashtirdim va sizga taqdim etdim. Endi siz muvaffaqiyatingiz haqida ortiq qayg'urmasangiz bo'ladi. Siz, nihoyat javobni topdingiz. Izlash davri siz uchun tugadi. Siz g'alabaga erishishingiz uchun sizga kerak bo'lgan hamma narsa sizning qo'lingizdagi kitobda hamda bu kitobning davomlarida bor. Nega men buncha ishonch bilan siz albatta ingliz tilingizda muvaffaqiyat qozonasiz deb aytyapman? Chunki men bu usulni faqat o'zim foydalanib, ingliz tilida juda sekin gapiruvchidan ajoyib so'zlovchiga aylanganim uchungina emas balki poytaxtimiz Toshkentda va butun davlatimiz bo'ylab ikki yuzdan ko'proq o'rganuvchilarga ingliz tilida xuddi shu yo'lda gapirib ketishlariga sababchi bo'lganman, ularning xursandchiligi shohidi bo'lganman. Va mening hamma yordam bergan o'quvchilarim juda ham xursand, va ular biz siz bilan ko'rib chiqmoqchi bo'lib turgan dasturimiz natijasida ingliz tilini erkin va ravon gapirayotganlaridan bag'oyatda shod. Men sizga va'da beramanki, siz ingliz tilida gapirshda albatta muvaffaqiyat qozonasiz. Va siz bu kunni butun umr ikkinchi

tug'ulgan kuningiz sifatida eslab qolasiz. Bugun.. Bugun qanday sana bo'lishidan qat'i nazar bugun sizning ikkinchi tug'ulgan kuningiz, siz eng ajoyib yo'lni o'rgangan kuningiz, barcha ajoyib narsalar sodir bo'lishni boshlagan kun!

Biz birga o'tkazadigan payt davomida siz ingliz tilida erkin, ravon gapirishingiz uchun hamma amaliy fikrlarni o'rganasiz. Men sizlarga siz o'ylagandan ko'ra ko'proq muvaffaqiyatli bo'lishingiz uchun eng sara fikrlarni hamda amaliy darslarni bermoqchiman. Men o'zimning besh yildan ko'proq vaqtimni qiynoqli tajribalarni boshimdan kechirdim, va nihoyat men bu sizga aytmoqchi bo'lgan fikrlarga keldim, dastlab o'zim o'rgandim, keyinchalik ko'p odamlarga o'rgatdim. Siz o'rganmoqchi bo'lgan usul hayotingizni o'zgartirishi mumkin. Siz qisqa vaqt ichida ingliz tilini o'rganib olishingiz mumkin va siz kutayotgan ko'plab natijalarga erishishingiz mumkin. Juda qiziqarli darajadagi aniq ma'lumot shundan iboratki, siz ingliz tilingizni men bilan o'rganish orqali, o'zingizni hamda atrofingizdagi hammani lol qilib, hayron qoldirasiz. Bu usul shunchalar kuchli; xohlagan kishi ingliz tilida bu yo'l orqali ajoyib so'zlovchi bo'la oladi, siz ham. Biz ingliz tilini o'rganish uchun ajoyib yo'limizga tomon sayohatimizni boshladik!

**Juda buyuk sayohat boshlanish arafasida. Kimdur aytgan: "millionlab kilometrli sayohat uni boshlash uchun birgina qaror va u tomonga bir qadam tashlashdan boshlanadi".**

# Darslardan qanday foydalanish:

1. Eshiting, dastlab so'zlarini o'qimasdan har kungi darsning hamma qismini shunchaki eshiting. Ingliz tilining eshinishi bilan tanishing. Shunchaki dam olib, mazza qilib eshiting! Birinchi martasiga hech narsa bilmaslik odatiy holat. Siz bundan xavotirga tushmang. Grammatikasi haqida hozirchalik xavotir olmang. Bizning usulda siz grammatikani o'z-o'zidan o'rganib ketasiz. Hammasi rejalashtirilgan. Yozilish shakli haqida ham birdaniga qayg'urmang. Sekin sekin o'rganib ketasiz.
2. Tushunishni boshlang hamda tushuning. Eshitayotgan vaqtingizda bir paytda so'zlariga va tarjimasiga qarang, hamda gaplarning ma'nosini tushuning. Ba'zi so'zlarning aynan ma'nosini bilmasangiz unga o'zingizni ovora qilmang. Endi siz yozilgan shakl va eshitishni bir paytda olib ketishingiz mumkin. Agar kerak bo'lsa, eshitishni to'xtatib, o'qib olishga harakat qiling va tushuning. Qayta-qayta eshiting hamda borgan sari yozilgan shaklini kamroq va kamroq o'qib ma'nosini o'qimasdan tushunishga harakat qilib keting. Sizning maqsadingiz bu bosqichning oxirida umuman matnni o'qimasdan ham tushunishdir. Shu vaziyatga kelguningizcha o'qishda davom eting. O'qimasdan ma'nosini tushunadigan paytga kelganingizda esa keyingi bosqichga o'tsangiz bo'ladi.
3. Har bir qism (Part) ni ko'p martalab qayta, qayta, qayta va aytmoqchimanki, qayta eshiting. Sizga ertalab yarim soat, tushlikda yarim soat va kechqurunlarida yarim soat, bir kunlik darsni eshiting. Juda oson bo'lsa ham, qayta va qayta eshiting. Siz keyingi kunga o'tishga shoshilmang. Bizning hamma ahamiyatga molik jihatimiz birgina chuqur o'rganishda deb olsak ham bo'ladi. Bu usulsiz sizni men muvaffaqiyatli gapiruvchi qilib berolmayman.
4. Mini-Story darslarida savollarga javob bering. Bu safar haqiqatan siz uchun bizning darslarimizda qatnasha olish imkoniyatini yaratdik. Savollarga javob berishga harakat qiling. Mini-story darslari bilan o'yinlar qiling, savollarga tezroq va tezroq javob bering.



5. So'zlarni matndan o'qishni mashq qiling, undan so'ng esa yozishni mashq qiling. Siz eshitishni tugatganingizda siz endi uni erkin o'qiy olasiz. Siz eshitishni qo'yib, siz nima eshitganligingizni yozishga harakat qiling. Bu bilan siz ingliz tilini har to'rttala mahoratlarini: gapirish, yozish, o'qish, eshitishlarni ham rivojlantirasiz.

\*Agar siz biror narsaga tushunmasangiz, men sizga bitta darsni qayta-qayta qilishni tavsiya etaman. Ba'zi bir darslar qiyin bo'lishi mumkin, bu holda siz ikki kun balki, undan ko'proq vaqt davomida ham eshitishingiz mumkin. Muhimi tez borish emas. Sekinroq yuring. Tez bormang. Ko'p dars qilish umuman muhim emas, bitta darsni ko'p martalab eshitish juda ham muhim. Garchi kitob yuzida 30 kunlik ingliz tili deyilsa ham, aslida kitobda 25 kunlik dars borligida sir bor deb o'ylagan bo'lsangiz kerak. Ha albatta, ba'zida bir qancha darslarni ko'proq va ko'proq eshitish imkoniyati bo'lishi uchun biz ataylab rejalashtirdik.

# Day 1

# 1-Kun

## Part 1 Text

Hi!

I am Farhod.

My name is Farhod.

I am 20 (twenty) years old.

I am from Uzbekistan.

Salom!

Men Farhodman.

Mening ismim Farhod.

Men 20(yigirma) yoshdaman.

Men O'zbekistondanman.

## Part 2 Mini-Story Text

I am Farhod.

Are you Farhod?

Yes, I am Farhod.

Are you Mike?

No, I am not Mike.

Are you Farhod?

Yes, I am Farhod.

Who are you?

I am Farhod.

Men Farhodman.

Siz Farhodmisiz?

Ha, men Farhodman.

Siz Maykmisiz?

Yo'q, men Mayk emasman.

Siz Farhodmisiz?

Ha, Men Farhodman.

Siz kimsiz?

Men Farhodman.

## Part 3 Mini-Story Text

My name is Farhod.

What is your name?

My name is Farhod.

Is your name Guljahon?

No, my name is not Guljahon.

Are you Ulmasoy?

No, I am not Ulmasoy.

Mening ismim Farhod.

Ismingiz nima?

Mening ismim Farhod.

Ismingiz Guljahonmi?

Yo'q, ismim Guljahon emas.

O'lmasoymisiz?

Yo'q, O'lmasoy emasman.

## Part 4 Mini-Story Text

**I am 20 (twenty) years old.**

Are you twenty years old?

Yes, I am twenty years old.

Are you 19 (nineteen) years old?

No, I am not nineteen years old.

How old are you?

I am twenty years old.

**Men 20(yigirma) yoshdaman.**

Siz yigirma yoshmisiz?

Ha, men yigirma yoshdaman.

19 (o'n to'qqiz) damisiz?

Yo'q, o'n to'qqizdamasman.

Nechi yoshsiz?

Yigirmadaman.

## Part 5 Mini-Story Text

**I am from Uzbekistan.**

Where are you from?

I am from Uzbekistan.

Are you from Korea?

No, I am not from Korea.

Are you from Japan?

No, I am not from Japan.

Are you from America?

No, I am not from America.

Are you from China?

No, I am not from China.

Are you from India?

No, I am not from India.

Are you from Australia?

No, I am not from Australia.

Are you from Canada?

No, I am not from Canada.

Are you from Spain?

No, I am not from Spain.

**Men O'zbekistondanman.**

Qayerdانسiz?

Men O'zbekistondanman.

Koreyadanmisiz?

Yo'q men Koreyadan emasman.

Yaponiyadanmisiz?

Yo'q, Yaponiyadan emasman.

Amerikadanmisiz?

Yo'q, amerikadan emasman.

Xitoydanmisiz?

Yo'q, Xitoydan emasman.

Siz Hindistondanmisiz?

Yo'q, Men Hindistondan emasman.

Siz avstraliyalikmisiz?

Yo'q, men Avstraliyadan emasman.

Siz Kanadadanmisiz?

Yo'q, Men Kanadadan emasman.

Ispaniyalikmisiz?

Yo'q, men Ispaniyadan emasman.

## Part 6 Text

**He is Farhod.**

His name is Farhod.

He is 20 (twenty) years old.

**U Farhod.**

Uning ismi Farhod.

U 20(yigirma) yoshda.

## **\*\*Jumanazardan sizga sharh\*\***

WAOW! Shunaqami? Yangicha ingliz tili o'rganish yo'li juda ham qiziq hamda oson bo'lishi bilan bir qatorda ozroq g'alati tuyulayotgan bo'lishi mumkin. Hech ham xavotir olmang. Tezda o'rganib olasiz! Ko'rganingizdek, siz takror va takror eshityabsiz. Bu aynan biz yosh bola bo'lganimizda o'z ona tilini shunday: bir xil gaplarni yana va yana eshitish orqali o'rgangan edik. Siz ingliz tilini ham xuddi shu muvaffaqiyatli usulda o'rganyabsiz. Bu gaplarni siz oson gapirishingiz uchun ko'p-ko'p eshiting. Va'da beramanki, siz juda qisqa vaqt ichida ingliz tilida qoyilmaqom gapirishni boshlaysiz. Bitta darsni yaxshi o'rganmasdan keyingisiga aslo o'tmang! Sizga omad tilab qolaman!

# Day 2

# 2-Kun

## Part 1 Text

Good morning.

I am Uzbek.

I live in a big city.

I live in Tashkent.

I am a student at university.

Assalom alaykum! (ertalab ishlatiladi)

Men O'zbekman.

Men katta shaharda yashayman.

Men Toshkentda yashayman.

Men universitetda talabaman.

## Part 2 Mini-Story Text

I am Uzbek.

Are you Uzbek?

Yes, I am Uzbek.

Are you Spanish?

No, I am not Spanish.

Who is Spanish?

My teacher Oscar is Spanish.

Are you Japanese?

No, I am not Japanese.

Men O'zbekman.

O'zbekmisiz?

Ha, o'zbekman.

Ispaniyalikmisiz?

Yo'q, ispaniyalikmasman.

Kim ispaniyalik?

O'qituvchim Oskarning millati ispan.

Siz yaponiyalikmisiz?

Yo'q, Men yaponiyalik emasman.

## Part 3 Mini-Story Text

I live in a big city.

Do you live in a big city?

Yes, I live in a big city.

Do you live in a small town?

No, I don't live in a small town.

Men katta shaharda yashayman.

Katta shaharda yashaysizmi?

Ha, kata shaharda yashayman.

Kichkina shaharchada yashaysanmi?

Yo'q, kichik shaharchada yashamayman

Do you live in a village?

Qishloqda yashaysanmi?

No, I don't live in a village,

Yo'q, qishloqda yashamayman,

I live in a city.

shaharda yashayman.

## Part 4 Mini-Story Text

**I live in Tashkent.**

**Men Toshkentda yashayman.**

Do you live in Tashkent?

Toshkentda yashaysizmi?

Yes, I live in Tashkent.

Ha, Toshkentda yashayman.

Do you live in Turkey?

Turkiyada yashaysizmi?

No, I don't live in Turkey.

Yo'q, Turkiyada yashamayman.

Do you live in Germany?

Germaniyada yashaysizmi?

No, I don't live in Germany.

Yo'q, Germaniyada yashamayman.

Where do you live?

Qayerda yashaysiz?

I live in Tashkent.

Toshkentda yashayman.

Do you live in France?

Fransiyada yashaysizmi?

No, I don't live in France.

Yo'q, Fransiyada yashamayman.

Do you live in England?

Angliyada yashaysizmi?

No, I don't live in England.

Yo'q, Angliyada yashamayman.

Do you live in Russia?

Rossiyada yashaysizmi?

No, I don't live in Russia.

Yo'q, Rossiyada yashamayman.

## Part 5 Mini-Story Text

**I am a student at university.**

**Men universitetda talabaman.**

Are you a teacher at university?

Universitetda o'qituvchimisiz?

No, I am not a teacher at university.

Yo'q, Universitetda o'qituvchi emasman.

Are you a pupil?

O'quvchimisiz?

No, I am not a pupil.

Yo'q, o'quvchi emasman.

Are you a doctor at hospital?

Shifoxonada doktormisiz?

No, I am not a doctor.

Yo'q, men doktor emasman.

## Part 6 Text

He is Uzbek.

U O'zbek.

He lives in a big city.

U katta shaharda yashaydi.

He lives in Tashkent.

U Toshkentda yashaydi.

He is a student at university.

U universitetda talaba.

## Part 7 past Text

I lived in a big city ten years ago.

Men o'n yil avval katta shaharda yashaganman.

I lived in Tashkent.

Men Toshkentda yashardim.

I was a student at university.

Men universitetda talaba edim.

## \*\*Jumanazardan sizga sharh\*\*

Ajoyib! Bunday ingliz tili darslaridan rohatlanyapsizmi? Men ham bu darslarni o'rganishga oson qilib tayyorlayotganim uchun juda ham xursandman.

Ko'proq eshitishingizni tavsiya qilaman. Keying darslarga shoshilmasdan bu darsni ko'proq eshiting. Qachonki, gaplarni osonlik bilan gapira olsangiz, shundan keyin uchinchi kun darslariga o'tsangiz bo'ladi.

“Siz avval erishmagan g'alabalarga erishish uchun, avval sizda bo'lmagan odatlar tashkil qilishingiz kerak”

# Day 3

# 3-Kun

## Part 1 Text

Good afternoon.

How are you?

I study at university.

I am learning Korean.

I can speak English and  
a little Spanish.

And I like learning Korean too.

Assalom alaykum! (abeddan keyin ishlatiladi)

Ahvollaringiz yaxshimi?

Men universitetda o'qiyman.

Men koreys tilini o'rganyabman.

Men ingliz va ozgina ispan tillarida  
gapira olaman.

Va koreyschani o'rganishni ham yaxshi  
ko'raman.

## Part 2 Mini-Story Text

I study at university.

Where do you study?

I study at university.

Do you go to kindergarten?

I don't go to kindergarten.

Do you study at school?

No, I don't study at school.

Men universitetda o'qiyman.

Qayerda o'qiyasiz?

Universitetda o'qiyman.

Bog'chaga borasizmi?

Yo'q, bog'chaga bormayman.

Maktabda o'qiyasizmi?

Yo'q, maktabda o'qimayman.

## Part 3 Mini-Story Text

I am learning Korean.

Are you learning Korean?

Yes, I am learning Korean.

Are you learning Spanish?

Men koreys tilini o'rganyabman.

Koreys tilini o'rganyabsizmi?

Ha, koreys tilini o'rganyabman.

Ispan tilini o'rganyabsizmi?



No, I am not learning Spanish.

Yo'q, ispan tilini o'rganmayabman.

Are you learning mathematics?

Matematika(ni) o'rganyabsizmi?

No, I am not learning mathematics.

Yo'q, matematikani o'rganmayabman.

What are you learning?

Nimani o'rganyabsiz?

I am learning Korean.

Koreys tilini o'rganyabman.

## Part 4 Mini-Story Text

**I can speak English and a little Spanish.**

**Men ingliz va ozgina ispan tillarida gapirolaman.**

What languages can you speak?

Qaysi tillarda gapira olasiz?

I can speak English and a little Spanish.

Inglizcha va ozgina ispan tilida gapirolaman.

Do you speak Russian with your mother?

Onangiz bilan ruschada gaplashasizmi?

No, I don't speak Russian with my mother.

Yo'q, onam bilan ruschada gaplashmayman.

Do you speak English with your friends?

Do'stlaringiz bilan inglizchada gaplashasizmi?

Yes, I speak English with my friends.

Ha, do'stlarim bilan inglizchada gaplashaman

## Part 5 Mini-Story Text

**And I like learning Korean too.**

**Va koreyscha o'rganishni ham yaxshi ko'raman.**

Do you like learning Korean?

Siz koreyscha o'rganishni yaxshi ko'rasizmi?

Yes, I like learning Korean.

Ha, koreyschani o'rganishni yoqtiraman.

Do you like dancing?

Raqsga tushishni yaxshi ko'rasizmi?

No, I don't like dancing.

Yo'q, raqsga tushish menga yoqmaydi.

Do you like going to university?

Universitetga borishni yoqtirasizmi?

No, I don't like going to university.

Yo'q, universitetga borishni yoqtirmayman.

## Part 6 Text

**She studies at university.**

**U( qiz bola) universitetda o'qiydi.**

She is learning Korean.

U koreys tilini o'rganyabdi.

She can speak English and a little Spanish.

U ingliz va ozgina ispan tillarida gapira oladi.

And she likes learning Korean too.

Va koreyscha o'rganishni ham yaxshi ko'radi.

## Part 7 Text

I studied at university.

Men universitetda o'qidim

I have learnt Korean.

Men koreys tilini o'rgandim

I spoke English and Spanish a little.

Men ozgina ingliz va ispan tilida gapiraman

And I preferred to learn Korean too.

Va men koreys tilini o'rganishni avzal ko'raman

## Part 8 Text

I will study at university.

Men universitetda o'qiyman.

I think I will learn Korean

Men o'ylaymanki men koreys tilini o'rganaman

I will speak English and a little Spanish.

Men ingliz va koreys tillarini o'rganaman.

And I will prefer to learn Korean too.

Va men koreys tilini o'rganishni avzal ko'raman

## \*\*Jumanazardan sharh\*\*

Malades! O'zingizni g'oliblardek his qilyapsizmi? Ha, albatta. Men sizda xuddi shunday yorqin hissiyotlar ko'p bo'lishi uchun ataylab shunaqa oson uslubda ingliz tilini o'rgatyabman. Siz savol-javob darslarida savollariga yana va yana tezroq javob bering. Bu darsni yaxshilab eshiting. Eshityotgan paytda, dam oling, hech narsa haqida xavotir olmang. Grammatik qoidalar haqida o'ylamang. Shunchaki eshiting hamda hordiq oling. Bir joyda to'xtalib qolmang. Harakatda bo'ling. Xafa bulishning o'rniga, yuzingizga tabassum qo'yib oling! Chuqur-chuqur nafas oling!

Omad!

# Day 4

# 4-Kun

## Part 1 Text

Good evening.

I want to speak Korean.

I am learning Korean in order to travel.

Korean is very interesting.

Assalom alaykum. (kechki paytda)

Men koreyscha gaplashmoqchiman.

Men koreys tilini sayohat qilish uchun o'rganyapman.

Koreys tili juda qiziqarli.

## Part 2 Mini-Story Text

I want to speak Korean.

Do you want to speak Korean?

Yes, I want to speak Korean.

Do you want to dance?

No, I don't want to dance.

Do you want to sing a song?

No, I don't want to sing a song.

Men koreyscha gaplashmoqchiman.

Koreyscha gapirishni xohlaysizmi?

Ha, koreyscha gapirishni xohlayman.

Raqsga tushishni xohlaysizmi?

Yo'q, men raqsga tushishni xohlamayman.

Siz qo'shiq kuylashni xohlaysizmi?

Yo'q, qo'shiq aytishni xohlamayman.

## Part 3 Mini-Story Text

I am learning Korean in order to travel.

Why are you learning Korean?

I am learning Korean for traveling.

Are you learning Korean for dancing?

No, I am not learning Korean for dancing.

Men koreys tilini sayohat uchun o'rganyabman.

Nega koreys tilini o'rganyabsiz?

Men sayohat uchun koreys tilini o'rganyabman.

Koreys tilini raqs uchun o'rganyabsizmi?

Yo'q, koreys tilini raqs uchun o'rganyotganim yo'q.

Do you learn Korean for eating  
Korean food?  
No, I don't learn Korean for eating  
Korean food.

Koreys tilini koreys ovqatini yeyish uchun  
o'rganyapsizmi?  
Yo'q, koreyscha ovqat yeyish uchun koreys  
tilini o'rganmayabman.

## Part 4 Mini-Story Text

**Korean is very interesting.**  
Is Korean very interesting?  
Yes, Korean is very interesting.  
Is Korean boring?  
No, Korean is not boring.  
Is Korean an unnecessary language?  
No, Korean is not an unnecessary language.  
Is Korean a necessary language?  
Yes, It is a very important language for me.  
Is it important?  
Yes, this language is very important.

**Koreys tili juda qiziqarli.**  
Koreys tili juda qiziqarlimi?  
Ha, koreys tili juda qiziqarli.  
Koreyscha zerikarlimi?  
Yo'q, koreys tili zerikarli emas.  
Koreys tili keraksiz tilmi?  
Koreyscha keraksiz til emas.  
Koreyscha kerakli tilmi?  
Ha, bu men uchun juda muhim til.  
Bu muhimmi?  
Ha, bu til juda ham muhim.

## Part 5 Text

**We want to speak Korean.**  
**We are learning Korean in order to travel.**  
**Korean is very interesting.**

**Biz koreyscha gaplashmoqchimiz.**  
**Biz koreys tilini sayohat qilish uchun  
o'rganyapmiz.**  
**Koreys tili juda qiziqarli**

**\*\*Jumanazardan sizga sharh\*\***

Salom, yana bir bor. Tabriklayman siz allaqachon ingliz tilida ancha yaxshi gaplashishni boshladingiz. Chuqur-chuqur nafas olamiz. Tabassum qilamiz. Tanamizni tik tutamiz. Yelkalarini ortga tortib, yuqoriga qaraymiz. Va yana xuddi shunaqa ko'tarinki kayfiyatda eshitishni davom etamiz!  
G'alabalar sari!

# Day 5

# 5-Kun

## Part 1 Text

**My teacher Yoon teaches Korean very well.**

**My teacher is Korean.**

**My teacher can speak English and Uzbek.**

**He helps student to learn Korean.**

**My teacher lives in Tashkent too.**

**We can speak English.**

**He is 43(forty-three) years old.**

**Korean is very interesting and very easy.**

**Ustozim Yun koreys tilini yaxshi o'rgatadi.**

**Mening o'qituvchim koreyalik.**

**O'qituvchim ingliz va o'zbek tilida gapira oladi.**

**U talabalarga koreyscha o'rganishga yordam beradi.**

**O'qituvchim ham Toshkentda yashaydi.**

**Biz ingliz tilida gaplasha olamiz.**

**U 43 (qirq uch) yoshda.**

**Koreys tili juda qiziqarli va juda oson.**

## Part 2 Mini-Story Text

**My teacher Yoon teaches Korean very well.**

**Who teaches very well?**

**My teacher Yoon teaches very well.**

**Does he teach English?**

**No, he does not teach English.**

**What does he teach?**

**He teaches Korean.**

**Does he teach Korean to taxi drivers?**

**No, he does not teach Korean to taxi drivers.**

**Does he teach Uzbek language to students?**

**No, he teaches Korean to students.**

**Ustozim Yun koreys tilini yaxshi o'rgatadi.**

**Kim yaxshi o'rgatadi?**

**O'qituvchim Yun juda yaxshi o'rgatadi.**

**U ingliz tilini o'rgatadimi?**

**Yo'q, u ingliz tilini o'rgatmaydi.**

**U nimani o'rgatadi?**

**U koreyschani o'rgatadi.**

**U koreyschani taksi haydovchilariga o'rgatadimi?**

**Yo'q, koreyschani taksi haydovchilariga o'rgatmaydi.**

**U talabalarga o'zbek tilini o'rgatadimi?**

**Yo'q, u talabalarga koreys tilini o'rgatadi.**

## Part 3 Mini-Story Text

**My teacher is Korean.**

**Mening o'qituvchim koreyalik.**

Is your teacher Korean?

O'qituvchingiz koreyalikmi?

Yes, he is Korean.

Ha, u koreyalik.

Is he Uzbek?

U o'zbekmi?

No, he isn't Uzbek.

Yo'q u o'zbek emas.

Is he Russian?

U rusmi?

No, he is not Russian.

Yo'q u rus emas.

## Part 4 Mini-Story Text

**My teacher can speak English and Uzbek.**

**O'qituvchim ingliz va o'zbek tilida gapira oladi.**

Can he speak English?

U inglizchada gapira oladimi?

Yes, he can speak English.

Ha, u ingliz tilida gapira oladi.

Can he speak Chinese?

U xitoy tilida gapira oladimi?

No, he cannot speak Chinese.

Yo'q, u xitoychada gapira olmaydi.

Can he speak German?

Nemis tilida gapiroladimi?

No, he cannot speak German.

Yo'q, nemis tilida gapira olmaydi.

Can he speak French?

U fransuschada gapira oladimi?

No, he does not speak French.

Yo'q, u fransuschada gapira olmaydi.

## Part 5 Mini-Story Text

**He helps student to learn Korean.**

**U talabalarga koreyscha o'rganishga yordam beradi.**

Does he help students?

U talabalarga yordam beradimi?

Yes, he helps students.

Ha, u talabalarga yordam beradi.

Does he help the police?

U politsiyaga yordam beradimi?

No, he does not help the police.

Yo'q, politsiyaga yordam bermaydi.

How does he help students?

U talabalarga qanday yordam beradi.

He helps students to speak Korean.

U talabalarga koreyscha gaplashishiga yordam beradi.

## Part 6 Mini-Story Text

**My teacher lives in Tashkent too.**

**O'qutuvchim ham Toshkentda yashaydi.**

Where does he live?

U qayerda yashaydi?

He lives in Tashkent.

U Toshkentda yashaydi.

Does he live in Termiz?

U Termizda yashaydimi?

No, he does not live in Termiz.

Yo'q, u Termizda yashamaydi.

Does he live in Barcelona?

U Barselonada yashaydimi?

No, he does not live in Barcelona.

Yo'q, u Barselonada yashamaydi.

We live in Tashkent.

Biz Toshkentda yashaymiz.

Do you live in Tashkent?

Sizlar Toshkentda yashaysizlarmi?

Yes, we live in Tashkent.

Ha, biz Toshkentda yashaymiz.

Who lives in Tashkent?

Kim Toshkentda yashaydi?

My teacher and I live in Tashkent.

O'qituvchim va men Toshkentda yashaymiz.

## Part 7 Mini-Story Text

**We can speak English.**

**Biz ingliz tilida gaplasha olamiz.**

Can we speak English?

Biz ingliz tilida gapira olamizmi?

Yes, we both can speak English.

Ha, biz ikkalamiz ham inglizchada gapira olamiz.

We can speak Uzbek too.

Biz o'zbekchada ham gaplasha olamiz.

Can we speak Uzbek too?

O'zbekchada gaplasholamizmi?

Yes, we can speak Uzbek too.

Ha, o'zbekchada gaplasha olamiz.

Can they speak Uzbek, Korean and English?

Ular inglizcha, o'zbekcha, koreyschada gaplasholadilarmi?

No, they can't speak three languages.

Yo'q, ular uchta tilda gaplasholmaydi.

We can speak Uzbek, Korean and English.

Biz o'zbek, koreys, ingliz tillarida gaplasha olamiz.

## Part 8 Mini-Story Text

He is 43(forty-three) years old.

How old is he?

He is 43 years old.

Is he 33 years old?

No, he is not 33 years old.

Is he 25(twenty five) years old?

No, he is not 25.

Is he 15(fifteen)?

No, he is not fifteen.

U 43 (qirq uch) yoshda.

U nechi yoshda?

U 43 yoshda.

U 33(o'ttiz uch) yoshdami?

Yo'q, u o'ttiz yoshda emas.

U yigirma besh yoshdami?

Yo'q, u 25da emas.

U 15(o'n besh) dami?

Yo'q, u o'n beshda emas.

## Part 9 Mini-Story Text

**Korean is very interesting and easy.**

Is Korean a boring language?

No, Korean is not a boring language.

Is Korean an easy language to learn?

Yes, Korean is an easy language to learn.

Is Korean very interesting?

Yeah, Korean is very interesting.

Is Korean easy?

Yes, of course. Korean is easy to learn.

**Koreys tili juda qiziqarli va oson.**

Koreys tili zerikarli tilmi?

Yo'q, koreys tili zerikarli til emas.

Koreyscha o'rganish uchun osonmi?

Ha, koreys tili o'rganish uchun oson.

Koreyscha juda qiziqmi?

Ha, koreyscha juda qiziq.

Koreys tili osonmi?

Ha, albatta. Koreys tili o'rganish uchun oson.

## Part 10 past Text

**My teacher Yoon taught Korean very well.**

**My teacher could speak English and Uzbek.**

**He helped student to learn Korean.**

**My teacher lived in Tashkent too.**

**We could speak English.**

**He was 43(forty-three) years old.**

**Ustozim Yun koreys tilini yaxshi o'rgatdi.**

**O'qituvchim ingliz va o'zbek tilida gapira olardi.**

**U talabalarga koreyscha o'rganishga yordam berdi.**

**O'qituvchim ham Toshkentda yashadi.**

**Biz ingliz tilida gaplasha olardik.**

**U 43 (qirq uch) yoshda edi.**



## **\*\*Jumanazardan sizga sharh\*\***

Savol-Javob darslariga to'xtalib o'tsak, ko'p marotaba savollar berishning katta maqsadi nima? Bilamizki, xorijiy tilni o'rganishdan asosiy maqsadimiz erkin, qiynalmasdan muloqot qila olish. Men tajribam davomida ko'p o'rganuvchilarni kuchli bilimidan qati' nazar gaplarga javob beryotganda qiynalishlarini va tarjima qilib gap tuzayotganliklarini kuzatganman. Va mana shu savol-javob (mini-story) darslari mana shu muammolarga yechim sifatida ishlab chiqdik. Bu darslarda siz haqiqiy suhbatlardek, ko'p va ko'p takrorlaysiz. Takrorlash orqali siz juda ham osongina muloqot qilishni o'rganasiz. Bu darslar sizdan avval minglab o'quvchilarda sinab ko'rilgan va yuqori darajada natija berganligi uchun sizga bu kitobda taqdim etilyabdi. Shuning uchun men sizga bu savol javob darslarida faol qatnashishingizni tavsiya qilaman. Dastlab, qisqa va xato javob bersangiz xavotir olmang. Siz endigina o'rganyabsizku, albatta xato javob berasiz. Bunga xavotir olish kerak emas. O'rganish tezligiga salbiy ta'sir ko'rsatishi mumkin. Ko'proq javob bering. Agar kerak bo'lsa, savollardan keyin to'xtatib javob bering. Savol-javob darsini qancha ko'p eshitib, unda ishtirok etsangiz, Siz g'alabangiz haqida qanchalik jiddiy ekanligingizni savol-javob darsini ko'proq eshitib, darslarga ishtirok etish orqali o'zingizga ko'rsating. Bugungi darsdan gaplar soni ozroq o'sib ketadi. Keyingi darslarga shoshilmasdan, bu darsni yaxshi tugatishni iltimos qilaman. Sizga ulkan mehnat va uning muvaffaqiyatlarini tilab qolaman. Keyingi darsgacha!

# Day 6

# 6-Kun

## Part 1 Text

I am very clever.

Men juda aqliman.

I am very handsome.

Men juda kelishganman.

I have a friend.

Mening do'stim bor.

His name is Farrukh.

Uning ismi Farrux.

He studies in London.

U Londonda o'qiydi.

He is very nice and intelligent.

U juda ajoyib va salohiyatli.

He lives in an apartment.

U kvartirada yashaydi.

## Part 2 Mini-Story Text

I am very clever.

Men juda aqliman.

Are you a stupid person?

Siz ahmoqmisiz?

No, I am not stupid person.

Yo'q, men ahmoq emasman.

Are you clever?

Siz aqlimisiz?

Yes, I am clever.

Ha, men aqliman.

Are you intelligent?

Siz salohiyatlimisiz?

Yes, I am intelligent.

Ha, men salohiyatliman.

Is he clever?

U aqlimi?

I am clever, not him.

Men aqliman, u emas.

## Part 3 Mini-Story Text

I am very handsome.

Men juda kelishganman.

Are you very handsome?

Siz juda kelishganmisiz?

Yes, I am very handsome.

Ha, men juda kelishganman.

Are you ugly?

Siz xunukmisiz?

No, I am not ugly.

Yo'q, men xunukmasman.

## Part 4 Mini-Story Text

**I have a friend.**

Do you have a problem?

No, I don't have a problem.

Do you have a lot of friends?

No, I don't have a lot of friends.

I have only one friend.

**Mening do'stim bor.**

Sizning muammoyingiz bormi?

Yo'q, meni muammoyim yo'q.

Sizning ko'p do'stlaringiz bormi?

Yo'q, mening do'stlarim ko'p emas.

Mening faqat bitta do'stim bo'r.

## Part 5 Mini-Story Text

**His name is Farrukh.**

What is his name?

His name is Farrukh.

Is his name Jakhon?

No, his name is not Jakhon.

**Uning ismi Farrux.**

Uning ismi nima?

Uning ismi Farrux.

Uning ismi Jaxonmi?

Yo'q, uning ismi Jaxon emas.

## Part 6 Mini-Story Text

**He studies in London.**

Does he study in London?

Yes, he studies in London.

Does he study in Termiz?

No, he does not study in Termiz.

Does he study at university?

Yes, he studies at university.

Who studies in London?

Farrukh studies in London.

**U Londonda o'qiydi.**

U Londonda o'qiydimi?

Ha, U Londonda o'qiydi.

U Termizda o'qiydimi?

Yo'q, uTermizda o'qimaydi.

U universitetda o'qiydimi?

Ha, u universitetda o'qiydi.

U Londonda o'qiydimi?

Farrux londonda o'qiydi.

## Part 7 Mini-Story Text

**He is very nice and intelligent.**

Is he very nice and intelligent?

Yes, he is very nice and intelligent.

Who is intelligent?

My friend, Farrukh is very intelligent.

**U juda ajoyib va salohiyatli.**

U juda ajoyib va salohiyatlimi?

Ha, u juda ajoib va salohiyatli.

Kim salohiyatli?

Mening do'stim Farrux salohiyatli.

Is your friend rude?

Sizing do'stingiz qo'polmi?

No, my friend is not rude.

Yo'q, mening do'stim qo'pol emas.

## Part 8 Mini-Story Text

**He lives in an apartment.**

**U kvartirada yashaydi.**

Does he live in the relative's house?

U qarindoshlarining uyida yashaydimi?

No, he doesn't live in relative's house.

Yoq, u qarindoshlarining uyida yashamaydi.

Does he live in friend's house?

U do'stining uyida yashaydimi?

No, he doesn't live in friend's house.

Yo'q u do'stining uyida yashamaydi.

Does he live in an apartment?

U kvartirada yashaydimi?

Yes, he lives in an apartment.

Ha, u kvartirada yashaydi.

## Part 9 Mini-Story Text

**He studied in London.**

**U Londonda o'qidi.**

**He lived in an apartment.**

**U kvartirada yashadi.**

### **\*\*Jumanazardan sizga sharh\*\***

Salom. Ahvollar qalay? Insoniyat tarixida xorijiy tilni o'rganish bundan osonroq bo'lmagan! Tabriklayman siz insoniyat tarixidagi eng ajoyib bo'lgan paytida yashayabsiz. Bu davrda biror narsaga erishish ortiq muammo bulmay qoldi, insonlarni faqat qanchalik tez hamda muvaffaqiyatli o'rganish mumkinligi haqidagi savol qiziqtirayabdi xolos. Biz bu darslar orqali faqat sizga ingliz tilini o'rgatish emas balki buni qanchalik tez va samarali o'rganishingizga ko'mak berishni asosiy maqsadimiz qilib olib tayyorladik. Bu uslub dunyoning birinchi raqamli ingliz tili o'qituvchisi deb nom olgan AJ Hoge, hamda til o'rganishni turli uslublaridan tajribasi davomida foydalanib ko'rgan tadqiqodchi tilshunos doktor Steven Krashen tomonidan isbotlangan va rivojlantirilgan. Ular qanday qilib chet tilini tez va samarali o'rganish mumkinligiga butun umrlari davomida izlanishdi. Sizga esa faqatgina darslarni eshitish vazifasi qo'yilgan xolos. Bir kunlik darsni ikki uch kun davomida yaxshilab qayta va qayta eshitishni tavsiya qilaman. Eshitayotganda, harakatda bo'ling, muammolar haqida o'ylamang. Hamda sizga muvaffaqiyat tilab qolaman.

# Day 7

# 7-Kun

## Part 1 Text

I have my parents and siblings in my family.	Oilamda ota-onam va tug'ishganlarim bor.
My house is big.	Mening uyim katta.
My elder sister is a teacher.	Mening katta opam o'qituvchi.
She teaches English to students at college.	U kolleжда talabalarga ingliz tilidan dars beradi.
She likes her job.	U ishini yaxshi ko'radi.
She is 25 (twenty five).	U 25 (yigirma besh) da.
She is very beautiful.	U juda ham chiroyli.

## Part 2 Mini-Story Text

I have my parents and siblings in my family.	Oilamda ota-onam va tug'ishganlarim bor.
Do you have three brothers?	Sizning uchta akangiz bormi?
No, I don't have three brothers.	Yo'q, meni uchta akam yo'q.
I have one little brother and brother.	Mening bitta ukam va akam bor.
We live together.	Biz birga yashaymiz.
Do you live together?	Sizlar dirga yashaysizlarmi?
Yes, we live together.	Ha, biz birga yashaymiz.
Do you live alone?	Siz bir o'zingiz yashaysizmi.
No, I don't live alone.	Yo'q, men bir o'zim yashamayman.
I live with my family.	Men oilam bilan yashayman.

## Part 3 Mini-Story Text

My house is big.	Mening uyim katta.
Is your house big?	Sizning uyingiz kattami?
Yes, my house is big	Ha, mening uyim katta.

Is your house small?  
No, my house is not small  
What is big?  
My house is big.  
And it is very beautiful.  
Is your house beautiful?  
Yes, it is very beautiful  
Is it very beautiful?  
Yes, it is very beautiful

Sizni uyingiz kichkinami?  
Yo'q, meni uyim kichkina emas.  
Nima katta?  
Meni uyim katta.  
Va u juda ham chiroyli.  
Sizni uyingiz juda ham chiroylimi?  
Ha, u juda ham chiroyli.  
U juda ham chiroylimi?  
Ha, u juda ham chiroyli.

## Part 4 Mini-Story Text

**My elder sister is a teacher.**

What is her job?

She is a teacher.

What does she do?

She is a teacher.

Who is a teacher?

My elder sister is a teacher.

Is she a cook?

No, she is not a cook.

Is she a singer?

No, she is not a singer.

Is she a house wife?

No, she is not a house wife.

Is she a sales assistant?

No, she is not a sales assistant.

**Mening katta opam o'qituvchi.**

Uning ishi nima?

U o'qituvchi.

U nima qiladi?

U o'qituvchi.

Kim o'qituvchi?

Mening katta opam o'qituvchi.

U oshpazmi?

Yo'q, u oshpaz emas.

U qo'shiqchimi?

Yo'q, u qo'shiqchi emas.

U uy bekasimi?

Yo'q, u uy bekasi emas.

U sotuvchimi?

Yo'q, u sotuvchi emas.

## Part 5 Mini-Story Text

**She teaches English to students at college.**

**U kollejda talabalarga ingliz tilidan dars beradi.**

Does she teach at university?	U universitetda dars beradimi?
No, she does not teach at university.	Yo'q, u universitetda dars bermaydi.
Does she teach at school?	U maktabda dars beradimi?
No, she does not teach at school.	Yo'q, u maktabda dars bermaydi.
She works at collage.	U kollejda ishlaydi.
Where does she work?	U qayerda ishlaydi?
She works at collage.	U kollejda ishlaydi.
Does she work at an education center?	U o'quv markazida ishlaydimi?
No, she does not work at an education center.	Yo'q, u o'quv markazida ishlamaydi.
Does she work for a company?	U kompaniyada ishlaydimi?
No, he doesn't work for a company.	Yo'q, u kompaniyada ishlamaydi.

## Part 6 Mini-Story Text

<b>She likes her job.</b>	<b>U ishini yaxshi ko'radi.</b>
Does she have problems?	Uning muommolari bormi?
No, she doesn't have problems.	Yo'q, uning muommolari yo'q.
Does she like her job?	U ishini yaxshi ko'radimi?
Yes, she likes her job.	Ha, u ishini yaxshi ko'radi.

## Part 7 Mini-Story Text

<b>She is 25(twenty five).</b>	<b>U 25(yigirma besh)da.</b>
How old is she?	U necha yoshda?
She is 25 years old.	U 25(yigirma besh)da.
Is she 26 years old?	U 26(yigirma olti)dami?
No, she is not twenty six.	Yo'q, u 26(yigirma olti)da emas.
Is she 19(nineteen) years old?	U 19(o'n to'qqiz)dami?
No, she isn't 19.	Yo'q, u 19(o'n to'qqiz)da emas.
Is she 18(eighteen)?	U 18(o'n sakkizda)mi?
Nope, she is not 18.	Yo'q, u 18(o'n sakkiz)da emas.

## Part 8 Mini-Story Text

She is very beautiful.

U juda ham chiroyli.

Is she very beautiful?

U juda ham chiroylimi?

Yes, she is very beautiful

Ha, u juda ham chiroylimi.

Is she ugly?

U xunukmi?

No, she is not ugly.

Yo'q, u xunuk emas.

She is very beautiful.

U juda ham chiroyli.

## **\*\*Jumanazardan sizga sharh\*\***

Darslarni 6 oy davomida uzib-uzib o'rganishdan ko'ra, muntazam ravishda har kuni kun tashlamasdan eshiting. Ba'zi bir kunlarni tashlab ketish haqida sira ham o'ylamang. Undan ko'ra har kuni eshitib, juda yaxshi tushunib, mukammal o'rganganingiz yaxshiroq hamda samaraliroq bo'ladi. Siz shu paytgacha o'rganganingizda keyingi darslarga shoshilib, birinchisini mukammal o'rganmasdan o'tib ketgandirsiz. Va bu sizning eng katta xatoyingiz edi. Bugundan boshlab siz bizning darslarimizni juda chuqur o'rganishni boshlang. Hamda mukammal o'rganish natijasidagi ingliz tilini juda oson ishlatishingizga guvoh bo'ling. Keyingi darslarda ko'rishguncha!



# Day 8

# 8-Kun

## Part 1 Text

**My mother is a nurse.**

**Mening onam hamshira.**

**She works at hospital.**

**U shifoxonada ishlaydi.**

**She works every day.**

**U har kuni ishlaydi.**

**She looks after the patients.**

**U bemorlarga g'amxorlik qiladi.**

**She is kind and polite.**

**U mehribon va xushmuomalali.**

## Part 2 Mini-Story Text

**My mother is a nurse.**

**Mening onam hamshira.**

**What is your mother's job?**

**Sizning onangizni kasbi nima?**

**My mother is a nurse.**

**Mening onam hamshira.**

**Is your mother an ambassador?**

**Sizning onangiz elchimi?**

**No, she is not an ambassador.**

**Yo'q, u elchi emas.**

**Her name is Sevara.**

**Uning ismi Sevara.**

## Part 3 Mini-Story Text

**She works at hospital.**

**U shifoxonada ishlaydi.**

**Does she work at the library?**

**U kutubxonada ishlaydimi?**

**No, she does not work at the library**

**Yo'q, u kutubxonada ishlamaydi.**

**Does she work at the department store?**

**U savdo markazida ishlaydimi?**

**No, she does not work at the department store.**

**Yo'q, u savdo markazida ishlamaydi.**

## Part 4 Mini-Story Text

**She works every day.**

**U har kuni ishlaydi.**

**Does she read every day?**

**U har kuni o'qiydimi?**

**No, she does not read a book every day.**

**Yo'q, u har kuni kitob o'qimaydi.**

**Does she write letters every day?**

**U har kuni maktub yozadimi?**

No, she doesn't write letters every day.

Does she work every day?

Yes, she works every day.

She works hard.

Is she lazy?

No, she is not lazy.

Is she hard-working?

Yes, she is hard-working.

Does she work hard?

Yes, she works hard.

Yo'q, u har kuni maktub yozmaydi.

U har kuni ishlaydimi?

Ha, u har kuni ishlaydi.

U qattiq ishlaydi.

U dangasami?

Yo'q, u dangasa emas.

U mehnatsevarmi?

Ha, u mehnatsevar.

U qattiq ishlaydimi?

Ha, u qattiq ishlaydi.

## Part 5 Mini-Story Text

**She looks after the patients.**

Does she look after the patients?

Yes, she looks after the patients.

Does she listen to music?

No, she doesn't listen to music.

Does she take care of the patients at hospital?

Yes, she takes care of the patients.

**U bemorlarga g'amxo'rlik qiladi.**

U bemorlarga g'amxorlik qiladimi?

Ha, u bemorlarga g'amxo'rlik qiladi.

U musiqa eshitadimi?

Yo'q, u musiqa eshitmaydi.

Shifoxonada bemorlarga g'amxorlik qiladimi?

Ha, u bemorlarga qaraydi.

## Part 6 Mini-Story Text

**She is kind and polite.**

Is she kind?

Yes, she is kind.

Is she polite?

Yes, she is polite.

Is she rude?

No, she is not rude.

Is she kind to everyone?

Yes, she is kind to everybody.

**U mehribon va xushmuomalali.**

U mehribonmi?

Ha, u mehribon.

U xushmuomalami?

Ha, u xushmuomala.

U qo'polmi?

Yo'q u qo'pol emas.

U hammaga xushmuomalalimi?

Ha, u hammaga xushmuomalali.

She is a kind person.

U mehribon inson.

## Part 7 past Text

My mom was a nurse.

Mening onam hamshira edi.

She worked at hospital.

U shifoxonada ishladi.

She worked every day.

U har kuni ishlardi.

She looked after the patients.

U bemorlarga g'amxorlik qildi.

## Part 8 past Text

My mother is going to be a nurse.

Mening onam hamshira bo'lmoqchi.

She is going to work at hospital.

U shifoxonada ishlamoqchi.

She will work every day.

U har kuni ishlaydi.

She will look after the patients.

U bemorlarga g'amxo'rlik qiladi.

### **\*\*Jumanazardan sizga sharh\*\***

